

MALAY TILI GRAMMATIKASIDA QISQARTMA SO'ZLARNING TURLARI VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA QO'LLANILISHI

Akramova Sarvinoz Abduvohid qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish(malay-ingliz) guruhi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12667870>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada malay tili grammatikasida qisqartma so'zlarning turlari, qo'llanilishi, gapdagi o'rni yaqqol yoritilib, qilingan tahlillar asosida ularning ommaviy axborot vositasidagi o'rni haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: malay tili, qisqartmalar, akronim, qo'shimchalar, asos, shakl, ommaviy axborot vositalari.

TYPES OF ABBREVIATIONS IN MALAY GRAMMAR AND USAGE IN THE MEDIA

Abstract. In this scientific article describes the types of abbreviations in the grammar of the malay language, based on the finding, their useage and role in the sentence are clearly explained and also shown their place in the social media.

Key words: malay language, abbreviations, acronym, suffixes, basis, form, social media.

ТИПЫ СОКРАЩЕНИЙ В МАЛАЙСКОЙ ГРАММАТИКЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В СМИ

Аннотация. В данной научной статье объясняется виды сокращений в грамматике малайского языка, их употребление, место в предложении, а также на основе полученных данных поясняется их место в средствах массовой информации.

Ключевые слова: малайский язык, аббревиатуры, суффиксы, основа, форма, средства массовой информации.

KIRISH

Morfologiya, etimologik jihatdan, "morf" so'zidan kelib chiqib, "shakl", "logi" so'zi esa "fan" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, morfologiya shakllar bilan bog'liq fan degan ma'noni anglatadi. Tilshunoslikda, morfologiya so'z shakllarini va so'z yasash jarayonlarini o'rganadigan fan hisoblanadi. Bu soha bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi, masalan: so'z qanday hosil bo'lishi, so'z yasash jarayonlari va ushbu jarayonlardan hosil bo'lgan shakllar shular jumlasidandir. Malayziya tilshunosi bo'lmish Nik Safiya Karim (2010:43) fikriga ko'ra, morfologiya malay tilida so'zlarning tuzilishi, shakli va tasnifini o'rganadigan bir soha turiga mansubdir. Shundan bilib olishimiz mumkinki, morfologiya bu so'z shakllari va ularni

o'rganadigan fani sohasidir. Manseor Pateda (1995) fikriga ko'ra, qisqartma so'zlarni muntazam qisqartirish orqali hosil bo'lgan bir shakl yoki so'zdir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, qisqartmalar bu bir nechta so'zlardagi harflarni olib tashlash jarayonidir va ular harflar tartibiga ko'ra alohida-alohida talaffuz qilinadi va huddi shunday yoziladi. Agar e'tibor beradigan bo'lsak, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning, Telegram, Tiktok, You Tube, Facebook, Whats upning ta'siri qisqartma so'zlarning qo'llanilishiga sabab bo'lmoqda. Insonlar xabar almashinish jarayonida to'g'ri yozish, gap tuzilishi yoki grammatik uslubga emas balki xabarni tez yetkazib berishga ko'proq e'tibor berishmoqda. Bunday holatlar esa qisqartma so'zlarning ommaviylashishiga sabab bo'ladi.

Qisqartma so'zlar uzun so'zlarni qisqartirish jarayonidir, bu jarayonda asosan turdosh otlar, atoqli otlar va sifat so'z turkumiga oid so'zlar qisqartiriladi. Qisqartma so'zlar asosan bir necha harflarni kamaytirganda yoki ma'lum belgilarni ishlatganda yuzaga keladi va bu natijada to'liq bo'lmagan talaffuzga ega yangi bir so'z hosil bo'ladi. Ushbu qisqartmalarni qo'llash, grammatikaning aniq qoidalarini hisobga olmasdan yozilishi shakli oddiy va osson bo'lganligi tufayli keng tarqalmoqda. Akronim bu bir necha so'zlarning qisqartmalarini birlashtirish orqali yangi bir to'liq so'z hosil qilish jarayonidir. Akronim bo'g'in yoki muayyan harflar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Nik Safiah Karim va Norliza Jamaluddin (2005:171) fikriga ko'ra, akronimlar so'zlarning birinchi qatoridagi bosh harflar yoki bo'g'inlarning bosh harflarini birlashtirishdan hosil qilingan qisqartma so'zlardir. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak akronimlar so'zi bir necha so'zlarning muayyan qismlarini birlashtirish orqali hosil qilingan so'zlardir. Akronimlar har doim bitta so'z sifatida yoziladi va bitta so'z sifatida talaffuz qilinadi. Akronimlik bu yagona so'z shaklidir va bu so'z uning asosini tashkil etuvchi bir nechta so'zlarni ifodalaydi.

MUHOKAMA VA TAHLILLAR

Ko'rishimiz mumkinki, malay tili grammatikasida "cerpen", "andartu" "pawagam" shuningdek, "MARA", "ADD" va "SSB" kabi so'zlarni ko'p uchramiz. Bu kabi so'zlar bir necha so'zning qismlarini birlashtirib, yangi so'z hosil qilish orqali paydo bo'lgan so'zlardir. Har bir yangi so'z o'z tuzilishi va ma'nosiga ega va bu jarayon orqali hosil qilingan yangi so'zlar akronimlar deb ataladi.

AKRONIM TURLARI

Akronimlarning tuzulishi va usullari ko'ra ikkita turi mavjud:

- a) *so'z qismlarini biriktirish*
- b) *so'z bosh harflarini biriktirish.*

SO'Z QISMLARINI BIRIKTIRISH

Akronimlarni bir so'zning farqli qismlarini biriktirib yangi bir so'z yaratish orqali tuzish

mumkin. Masalan, "cerpen" so'zi "cer" va "pen" so'zlarining birinchi qismini birlashtirish orqali yasalgan. Yangi bir so'z, ya'ni "cerpen," roman bilan taqqoslanganda "qisqa hikoya" degan ma'noni ifodalaydi. Misol uchun, *"andartu"* (katta qiz), *"pawagam"* (kinoteatr) kabi so'zlar kiritiladi. Bu kabi usulda so'zlardan foydalanish, malay tili qurish faoliyatida ham avvalda paydo bo'lgan ammo vaqt o'tgan sari o'z ahamiyati yo'qota boshlagan, bular:

- 1) jalan langkah → jalangkah "jalan raya yang berupa jambatan melintasi jalan lain".
(*ko'prik shakldagi katta yo'l*)
- 2) makan daging → maging "binatang yang makan daging". (*go'sht yeydigan hayvon*)
- 3) Sarjana Muda Sastera daripada universiti → SamSa "Ijazah pertama daripada university". (*universitetning birinchi kursi*)
- 4) Sekretari Jeneral → sekjen "pegawai utama dalam organisasi". (*tashkilotning bosh xodimi*)
- 5) brigedier jenderal → brigjen "jeneral satu bintang". (*bir yulduzli general*)
- 6) gugur tambah → gugtam "masa mendaftar dan menggugurkan kursus di universiti".
(*universitetdan ro'yhatdan o'tish va tugatish vaqti*)
- 7) jentera tolak → jentolak "jentera buat menolak tanah". (*yerni asfaltlovchi mashinalar*)
- 8) jalan bawah tanah → jabanah "jalan yang melintasi jalan lain dari bawah". (*boshqa yo'lni kesib o'tuvchi pastda joylashgan qo'shimcha yo'l*)

Yuqoridagi har bir akronim yangi bir so'zi yangi ma'no yoki yangi bir maqsadga ega. Shuningdek, bu so'zlar yangi so'z sifatida ko'pdan beri malay tili grammatikasida ishlatiladi va bularning barchasi til tuzilishiga ko'ra gap yoki so'z yasash jarayonida ishlatilishi mumkin. Misol uchun:

- 1) cerpen "cerita pendek" (bentuk akronim) (*akronim bir turi*)
- 2) cerpenis "penulis cerita pendek" (diberi akhiran -is) (*is-qo'shimchasi olishi*)
- 3) cerpen-cerpen "beberapa cerita pendek" (digandakan) (*bir qancha hikoyalar*)
- 4) cerpen zaman darurat (menjadi inti frasa nama dengan penerang)
- 5) hadiah cerpen (menjadi penerang dalam frasa nama).

SO'Z BOSH HARFLARINI BIRIKTIRISH

Malay tili grammatikasida uzun iboralarning bosh harflari birlashtirilib, bir tushuncha, muassasa yoki binoni nomlash uchun yangi bir so'z yaratilishidir. Oldinlari, bunday so'zlar bir so'z sifatida talaffuz qilinadigan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bu so'z yagona bir so'z sifatida qabul qilinadi. Bundan kelib chiqadiki, akronimlarni yaratish ham yangi bir so'z yaratish usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Misol uchun:

- a) ADD (Akhbar dalam Darjah) (*darajadagi gazetalar*)
- b) MARA (Majlis Amanah Rakyat) (*xalq kengashi*)
- c) KAFA (Kursus Agama Fardu Ain) (*Fardu Ain kursi*)
- d) DEB (Dasar Ekonomi Baru) (*yangi iqtisodiy siyosat*)
- e) SSB (Sistem Saraan Baru) (*yangi kompensatsiya tizimi*)
- f) KBSR (Kurikulum Bersepadu Sekolah Rendah) (*boshlang'ich maktab*

o'qub dasturi)

Bu turdagi akronimlarni uzun bo'lgan so'zlarni qisqartmasi bilan adashtirish juda oson. Akronim va boshqa so'z qisqartmalari o'rtasidagi muhim farq shundaki, akronim yangi tuzilish yoki ma'noni ifodalaydi, qisqartma esa bunday emas, masalan, ADD (Akhbar dalam Darjah) til o'rgatishda yangi tuzilish bo'lib, bu usuldan gazetadan olingan iqtiboslarda ishlatiladi. Shu bilan bir qatorda, yuqoridagi akronimlar boshqa so'zlar singari so'z sifatida o'z xususiyatlarga ega va so'z sifatida bemalol ishlatila oladi.

Singkatan Nama Khas/ Atoqli ot sifatida qo'llaniladigan qisqartmalar		
No	Kata Singkatan/ qisqartma so'z	Kata Asal/ to'lliq so'z
1.	KL	Kuala Lumpur/ <i>Kuala Lumpur</i>
2.	RM	Ringgit Malaysia/ <i>Malayziya ringiti</i>
3.	Feb	Februari/ <i>Fevral</i>
4.	Prof	Profesor/ <i>professor</i>
5.	Hj	Haji/ <i>hoji</i>
Singkatan Umum/ Turdosh ot sifatida qo'llaniladigan qisqartmalar		
No	Kata Singkatan/ qisqartma so'z	Kata Asal/ to'lliq so'z
1.	tt	Tandatangan/ <i>imzo</i>
2.	jk	Jawatankuasa/ <i>qo'mita</i>
3.	no.	Nombor/ <i>raqam</i>
4.	tel	Telefon/ <i>telefon</i>

5.	bhs	Bahasa/ <i>til</i>
Singkatan Kata Serapan daripada Bahasa Arab/ Arab <i>tilidan kirib kelgan qisqartmalar</i>		
1.	SWT	Subhanahuwataala
2.	Assalam	Assalamualaikum
3.	Wassalam	Walaikumussalam
4.	SAW	Sallallahualaihiwas allam
5.	A.yarham atau A.yhm	Allahyarham

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ommaviy axborot vositalarida qisqartma so'zlarni qo'llash odatiy hol bo'lib, foydalanuvchilar uchun tez va qisqa muloqot qilishda juda qo'l keladigan jarayondir. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, qisqartmalar odatda do'stlar bilan suhbatda rasmiylikni yo'qotish uchun ishlatiladi. Garchi qisqartmalar muloqotni tezlashtirishi mumkin bo'lsa-da, foydalanuvchilar qisqartma so'zlarni qabul qiluvchilarni chalkashtirib yubormasligiga ishonch hosil qilishlari zarurdir. Foydalanuvchilar doim to'g'ri tizimga ega, malay tili grammatikasi qoidalariga to'g'ri keladigan qisqartmalardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Abdullah Hassan. (1993). *Tatabahasa Pedagogi Bahasa Melayu*. Kuala Lumpur: Utusan Publications & Distributors Sdn.Bhd.
2. Asmah Hj. Omar. (1986). *Nahu Melayu Mutakhir*. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka Kementerian Pelajaran Malaysia.
3. Liaw Yock Fang & Abdullah Hassan. (1995). *Nahu Melayu Moden*. Selangor Darul Ehsan: Fajar Bakti Sdn.Bhd.
4. Nik Safiah Karim, Farid M. Onn, Hashim Haji Musa & Abdul Hamid Mahmood. (2024). *Tatabahasa Dewan*. Selangor Darul Ehsan: Global Smart Printings Sdn. Bhd.
5. Raminah Hj Sabran, Nawis Ismail & Zulkarnain Farihun Abdullah. (2020). *Pemantapan Pemahaman Tatabahasa Bahasa Melayu*. Selangor. Mutiara Suria Ilmu Resources.